

## REKREATSIYA RESURSLARIDAN OQILONA FOYDALANISH VA ULARNI MUHOFAZA QILISH BARQAROR IQTISODIY O'SISH OMILI SIFATIDA

Muxitdinov Abduvaxob Abduvaliyevich

Jizzax politexnika instituti assistenti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11032358>

**Annotatsiya.** Maqolada barqaror iqtisodiy rivojlanishning hal qiluvchi omili sifatida rekreatsiya resurslaridan oqilona foydalanish va saqlash muhimligi ko'rib chiqiladi. Kurort, sog'lomlashtirish, sport va ekologik dam olishni o'z ichiga olgan dam olish, tog'-kon, o'rmon va baliqchilik sanoati bilan taqqoslanadigan asosiy resurs talab qiladigan sanoatdir. Rekreatsion resurslarning samaradorligi rekreatsion hududlarning hududiy tashkil etilishi va ixtisoslashuv bilan chambarchas bog'liq. Muallifning ta'kidlashicha, barqaror rivojlanish rekreatsion hududlarni rivojlantirish va saqlash o'rtasidagi muvozanatni, ayniqsa, kengaytirish imkoniyatlari cheklangan, rivojlanmagan hududlarni talab qiladi. Rekreatsion resurslarning ixtisoslashuv darajasi va foydalanish intensivligi bo'yicha tasnifi ko'rib chiqiladi va tabiiy rekreatsiya resurslarini baholash usullari, shu jumladan, tibbiy-biologik, psixologik-estetik va texnologik yondashuvlar taqdim etiladi.

**Kalit so'zlar:** Rekreatsion resurslar, barqaror rivojlanish, hududiy tashkil etish, rekreatsion hududlarni ixtisoslashтирish, tabiiy resurslarni baholash, tibbiy-biologik baholash, psixologik va estetik baholash, texnologik baholash.

**Аннотация.** Статья рассматривает важность разумного использования и сохранения рекреационных ресурсов как критического фактора устойчивого экономического развития. Рекреация, охватывающая санаторно-курортный, оздоровительный, спортивный, и экологический отдых, представляет собой одну из ключевых ресурсоемких отраслей, сравнимую с горнодобывающей, лесной и рыболовной индустриями. Эффективность рекреационных ресурсов тесно связана с территориальной организацией и специализацией рекреационных регионов. Авторы подчеркивают, что для устойчивого развития требуется баланс между развитием и сохранением рекреационных территорий, особенно в неосвоенных зонах, где возможности для расширения ограничены. Рассматривается классификация рекреационных ресурсов по уровню их специализации и интенсивности использования, а также представлены методы оценки природных рекреационных ресурсов, включая медико-биологические, психолого-эстетические и технологические подходы.

**Ключевые слова:** Рекреационные ресурсы, устойчивое развитие, территориальная организация, специализация рекреационных регионов, оценка природных ресурсов, медико-биологическая оценка, психолого-эстетическая оценка, технологическая оценка.

**Annotation.** The article examines the importance of wise use and conservation of recreational resources as a critical factor in sustainable economic development. Recreation, which includes spa, health, sports, and environmental recreation, is a key resource-intensive industry comparable to the mining, forestry, and fishing industries. The efficiency of recreational resources is closely related to the territorial organization and specialization of recreational regions. The authors emphasize that sustainable development requires a balance between the development and conservation of recreational areas, especially in undeveloped areas where opportunities for expansion are limited. The classification of recreational resources according to

*the level of their specialization and intensity of use is considered, and methods for assessing natural recreational resources are presented, including medical-biological, psychological-aesthetic and technological approaches.*

**Keywords:** Recreational resources, sustainable development, territorial organization, specialization of recreational regions, assessment of natural resources, medical and biological assessment, psychological and aesthetic assessment, technological assessment.

Rekreatsiya xo‘jalik tarmog‘i va odamlar faoliyati turi sifatida yaqqol ifodalangan resurs orientatsiyasiga ega bo‘lgan tarmoqlar qatoriga kiradi va bunda u tog‘-kon, o‘rmon sanoati, baliq ovlash, qishloq xo‘jaligiga o‘xshab ketadi.

Ular kurort, sog‘lamlashtirish, sport, ekologik rekreatsiyalar turlariga bo‘linadi. Masalan, turizmni asosiy resursi - dunyo xilma xilligidir. Odamlar yashaydigan ajoyib, butoq, xayratlanarli joylar va ularning xilma xilligi sayyohlarda yirik shaharlarni, turli mamlakatlarni, tabiat go‘shalarini, tog‘ va tekislik, landshaftlarini, tarixiy yodgorliklarni, odam ta’sir ko‘rsatmagan qo‘riqxonalarni ko‘rish ishtiyoqini uyg‘otadi [1]. Shovqin, shuningdek, odamlarning gavjum bo‘lib to‘planishi, ko‘p qavatlari standart uylar va binolardan charchab toliqqan yirik shaharlarda yashovchilar uchun tabiat qo‘ynida, tog‘larda, odam kam yashaydigan kurort shaharchalarida dam olish, hordiq chiqarish katta taasurot qoldiradi, ularning quvvatlarini tiklashga imkon beradi [2].

Rekreatsiya resurslari samaradorligi rekreatsiya faoliyatini hududiy tashkil etish, rekreatsiya rayonlari va markazlarining shakllanishiga, ularning ixtisoslashishi va iqtisodiy samadorligiga bog‘liq [3]. Lekin bu bog‘liqlik bevosita bo‘lmay, balki bilvositadir, ya’ni ular ijtimoiy-iqtisodiy omillar, ang avvalo, rekreatsiya ehtiyojlarning hajmi va tarkibi orqali namoyon bo‘ladi.

Rekreatsiya hudud iste’molchisi sifatida qishloq va o‘rmon xo‘jaligidan keyingi uchinchi o‘rinni egallaydi. Rekreatsiya hududga ehtiyoji uy joy qurilishiga nisbatan 3 marta ko‘proqdir. Lekin, rekreatsiya asosan o‘zgartirilmagan hududlarga katta ehtiyoj talab qiladiki, ayni paytda u afsuski, o‘zlashtirilmagan rayonlarda rivojlanish uchun cheklangan imkoniyatlarga egadir. Rekreatsiya zonalarini foydali qazilma konlari, yuqori zararli ta’sir ko‘rsatadigan sanoat korxonalari yaqinida joylashtirishga yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi [4,5,6].

Rekreatsion ixtisoslashishning darajasiga ko‘ra, rekreatsiya resurslarini makondan foydalanish bo‘yicha uchta asosiy turga ajratish mumkin:

1. Rekreatsiya yuqori intensivlikdagi hududlar. Bunda ulardan boshqa maqsadda foydalanuvchilar bo‘lmaydi yoki ikkinchi darajali ahamiyatga ega (parklar, plyajlar va boshqalar);

2. Rekreatsiya o‘rtalik intensivlikdagi hududlar. Ular bir vaqtinig o‘zida ba’zi ekologik va ishlab chiqarish funktsiyalarini bajaradi. Jizzax viloyatida bunga Aydarko‘l suv havzasini misol qilib keltirish mumkin [7];

3. Rekreatsiya kam\_salmoqqa ega bo‘lgan hududlar. Rekreatsiyani mamlakat mintaqalarida hududiy tashkil etishni ilmiy asoslagan holda muddatli rejallashtirish va bashoratlash rekratsiya resurslariga ehtiyojning hajmi va talablarning xilma-xilligini hisobga olib rekreatsiya makonlarini inventarizatsiyalash va rekreatsiya kadastirini tuzish bo‘yicha katta hajmdagi ishlarni amalga oshirishni talab qiladi [8].

Tabiiy resurslarni rekreatsion baholash quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

-baholash obyektni aniqlash (tabiiy komplekslar, ularning komponentlari va xususiyatlari).

-baholashni amalga oshiradigan subyektni aniqlash (turizm, o'rtacha statistik turist).

-baholash mezonlarini (kriteriyalarni) shakllantirish (subyekt xususiyatlari orqali aniqlash bilan amalga oshiriladi) .

-baholash shkalasi gradatsiya (bosqichi parametrlarini aniqlash) [9].

Shkalalar subyekt va obyekt o'rtasidagi baholash munosabatlarini ko'rsatadi. Bunda doim shkala bosqichlari soni to'g'risidagi masala ko'ndalang turadi. Ko'pincha 3-4 yoki 5-6 bosqichlardan foydalanadi. Rekreatsiya uchun besh bosqichli baholash shkalasi quyidagi gradatsiyani o'z ichita oladi [10,11];

Eng qulay, mo'tadil qulay, qulay, uncha qulay emas, noqulay.

Bunda bosqichlar o'rtasidagi gradatsiya farqlari o'zaro bog'likligining xususiyatlari bilan belgilanadi [12].

Baholash medik-biologik turida tabiiy sharoitning inson organizmiga ta'siri hisobga olinadi. Medik biologik baholashda iqlim asosiy o'rinni egallaydi.

Baholashni psixologik-estetik turida tabiiy rekreatsiya resurslarining inson ruhiyatiga estetik va ma'naviy ta'siri har tomonlama hisobga olinadi. Bunda tabiiy lanshaft va uning komponentlari alohida ajralib turuvchi xususiyatlarining hissiy (his tuyg`ular) ta'siri bilan baholanadi [13,14,15]. Masalan, katta estetik qimmatga (go'zallikka) ega bo'lgan hududlarni rekreantlar yuqori baholaydilar (o'rmon suv havzalari tutash zonalar), tekislik (cho'l)-adir (past samara beradi). Bular tabiiy rekreatsiya obyektlarining estetik qiymatini oshirishi yoki aksincha pasaytirishi mumkin [16].

Baholashning texnologik turida odam va tabiiy komplekslarning o'zaro ta'siri rekreatsiya faoliyatining "texnalogiya"si va texnikasi orqali o'z aksini topadi. Baholashning bu turida bir tomonidan rekreatsiya mashg'ulotlarining u boshqa turi va ularning umumiy tizimi baholanadi, boshqa tomonidan esa hududlarni muhandislik-qurilish nuqtayi nazaridan o'zlashtirish imkoniyatlari baholanadi [17]. Bunda rekreatsiya tarmog'i nuqtayi nazaridan tabiiy resurs yuqori sifatga ega bo'lsa va ularning aholining ma'lum qismining dam olishi va sanatoriyada davolanishini tashkil etish uchun yetarli bo'lishi va ularning maydoni va zaxiralari ham uzoq muddat foydalanishga ham iqtisodiy tomondan asoslangan bo'lishi kerak [18].

Integral baholash rekreatsiyani rivojlantirish va joylashtirishning g'oyaviy sxemalarini tuzishda, uzoq muddatli rejorashtirish va bashoratlashda rekreatsiya rayonlashtirishda, investitsiya siyosatini ishlab ehtiyojlarni ta'minlashni baholashda va boshqalar katta ahamiyatga ega [19]. Sifat baholashning kuchli tomoni shundaki, u tabiiy hududiy komplekslarning genezis va marfologik tarkibi chuqr tahlil qilishga asoslanib baholash belgilari mantiqan baholashga imkon beradi.

Tabiiy rekreatsiya resurslarini iqtisodiy baholash resurslaridan uzoq muddat foydalanishni hisobga olish, tabiiy rekreatsiya resurslarini ifodolovchi va saqlovchi hisoblangan tabiiy hududlarnnng imkoniyatlaridan foydalanish va uni yaxshilash, takror ishlab chiqarish va asrash, muhofaza qilish uchun kapital quyilmalar ajratish, investitsiyalash va boshqalarni iqtisodiy asoslash uchun zarur [20]. Shu munosabat bilan ushbu hududlardan qishloq xo'jaligi, rekreatsiya, qurilish va boshqa yo'nalishlarda foydalanish variantlari jihatidan iqtisodiy samaradorligini baholash muhim ahamiyatga ega.

Differentsial rekreatsiya rentalarining shakllanishi dam olish va turizmda foydalanish uchun eng yaxshi yerkarning cheklanganligi bilan bog'liqdir [21]. Differentsial renta-I ning

shakllanishi, qishloq xo‘jaligidagi kabi, shuningdek, ularning rekreatsiya ehtiyojlari joylariga nisbatan joylashgan o‘rnining farqlari bilan uzaro bog‘liqligi orqali yuzaga keladi.

Differentsial renta-II ning shakllanishi rekreatsiyadan olinadigan daromadlarni ko‘paytirish maqsadida rekreatsiya hududlarinng qiymatini oshirish uchun qo‘sishimcha kapital quylmalarini sarflash bilan bog‘liqdir. Bir toifa rekrentlar shinam sharoitlarida dam olishni afzal ko‘rsalar, boshqalar uchun osoyishta dam olish tafsifli, ular uchun rekreatsiya qiymatlari mutanosib darajaga ega [22].

Markaziy Osiyoda O‘zbekiston Respublikasi markaziy siyosiy o‘rmini egallaydi va rekreatsiyani rivojlantirish uchun katta potentsial imkoniyatlarga egadir [23]. Mamlakat hududida dunyoga dong‘i ketgan tarixiy yodgorlik shaxarlar-Samarqand, Buxoro, Xiva, quqon, Shaxrisabz, Termiz, va boshqalar joylashgan. O‘zbekistonning xilma-xil rekreatsiya turlarni rivojlayatirishga mustahkam asos bo‘ladigan jumladan ko‘plab shifobaxsh mineral suvlari, shifobaxsh balchiqlar bor:

O‘zbekiston tabiatining rekreatsiya qiymati uning hudud landshaftlarining xilma-xilligi bilan belgilanadi. O‘zbekistonning quyidagi tabiiy rekreatsiya rayonlarini ajratish mumkin. Farg‘ona, Chirchiq, Ohongaron, Zarafshon, Mirzacho‘l, Qashqadaryo, Surxondaryo va boshqalar [24].

Istiqlolda O‘zbekiston rekreatsiya resurslarini potentsialiga resurslarini to‘la o‘rganish va tabiiy rekreatsiya potentsialiga asoslanib mamlakatning turli qishloqlarida rekreatsiya komplekslarini barpo etish muhim muammolardan biri hisoblanadi.

Rekreatsiya resurslari, ularni baholashning ko‘rsatkichlari, ulardan foydalanishni iqtisodiy baholash, ulardan amaliyatda foydalanish, ularni muhofazalash mamlakatning iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida muhim muammodir. O‘zbekistonda rekratsiya resurslaridan oqilona foydalanish va ularni muhofazalash mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishdagi muhim yo‘nalish hisoblanadi [25].

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Aynakulov M. “Iqtisodiy tahlil va audit” fanini o‘qitishda G. Monj usulining tadbiqi // Biologiyaning zamonaviy tendensiyalari: muammolar va yechimlar. – 2023. – T. 1. – №. 5. – C. 902-905
2. Айнакулов М. А. Menejment qarorlarining boshqaruvi asosi sifatida shakllanishining tavsiyaviy bosqichlari // Results of National Scientific Research International Journal. – 2024. – T. 3. – №. 1. – C. 255-264.
3. Айнакулов М.А., Абдухамидов Э. Нормативно-правовая база интеграционных отношений хозяйствующих субъектов //Молодой ученый. – 2016. – №. 7-2. – С. 80-83.
4. Berkinov B. B., Aynaqulov M. A. Kichik tadbirkorlik korxonalarining yirik korxonalar bilan ishlab chiqarish kooperatsiyasi //Monografiya-Jizzax. – 2004. – Т. 114. – С. 2004-114.
5. Abduvalievich M.A. Xo‘jalik yuritishni transformatsiyalash negizida xo‘jalik yuritish klasterlarining nazariy asoslari // International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. – 2022. – С. 356-359.
6. Ne’matillayevich G.B., O‘G‘Li M. A. A., O‘G‘Li A. B. T. Iqtisodiyotda kooperatsiyaga asoslangan agroklaster yo‘nalishlari // Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2021. – Т. 1. – №. 5. – С. 780-785.

7. Burxanovich M.A. Raqamli iqtisodiyot-mahsulot sifati-nazorat-kasbiy kompetentlilik //International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. – 2022. – C. 162-164.
8. Qosimov J. A. et al. Development of methods for improving the lessons of information technology on the basis of graphic programs //AIP Conference Proceedings. – AIP Publishing, 2022. – T. 2432. – №. 1.
9. Qosimov J. A. et al. The role of software in the development of modeling in education //AIP Conference Proceedings. – AIP Publishing, 2022. – T. 2432. – №. 1.
10. Aynaqulov M.A. Xudayberdiyev B.B. Motivatsiya samaradorlik garovi sifatida // Ilmiy axborotnoma jurnali. Samarqand Davlat Universiteti. – 2020. – №. 2 (120). – C. 91
11. Mahkamovich S.A., Parmanovich I.A. Korxona faoliyati samaradorligini ta'minlashda transformatsiyalashning o'rni va roli //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2021. – T. 1. – №. 5. – C. 800-805.
12. Parmanovich I.A., Mahkamovich S.A. Methods, Perspectives and Mechanisms of Increasing the Efficiency of Tourism in Jizakh Region //Academic Journal of Digital Economics and Stability. – 2021. – C. 558-563.
13. Maxkamovich S.A. Iqtisodiyotni transformatsiyalash sharoitida klasterlar faoliyatini rivojlantirish bo'yicha ba'zi tavsiyalar // International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. – 2022. – C. 164-166.
14. Гаппаров Б.Н., Жуланов И.О. Традиции трудового воспитания узбекского народа (на примере работ восточных мыслителей) // Общество. – 2020. – №. 1. – С. 66-68.
15. Гаппаров Б.Н., Игамбердиев Д.Х. Формирование изобретательских умений студентов как важный фактор профессиональной подготовки. – 2019.
16. Qosimov J.A. et al. Increasing the effectiveness of lessons by creating a problem situation in teaching drawing //AIP Conference Proceedings. – AIP Publishing, 2022. – T. 2432. – №. 1
17. Qosimov J.A. et al. The role of software in the development of modeling in education //AIP Conference Proceedings. – AIP Publishing, 2022. – T. 2432. – №. 1.
18. Гаппаров Б.Н. Электронное научно-практическое периодическое издание «Экономика и социум». ISSN 2225-1545. Выпуск №2 (93)-1 (февраль, 2022). стр. 264-270.
19. Gapparov B.N., Akramova M.A. “Intenational Conference on Learning and Teaching” mavzusidagi xalqaro onlayn ilmiy-amaliy konferensiya. 28.02.2022. 146-148 betlar.
20. Gapparov B.N. “Intenational Conference on Learning and Teaching” mavzusidagi xalqaro onlayn ilmiy-amaliy konferensiya. 28.02.2022. 154-156 betlar.2
21. Abdukhamidovich A.M., Tursunboyevich K.Y. Institutional Fundamentals of Economic Management Cluster //JournalNX. – C. 591-593.
22. Abdukhamidovich A. M., Ikromovich A. B. The Concepts of Homeworking, Cooperation and Cluster and Their Interaction //JournalNX. – C. 594-596.
23. Айнакулов М.А. Экономическая эффективность управления кластером в реальном секторе экономики // Экономика и социум. – 2022. – №. 2-1 (93). – С. 187-193.
24. Aynakulov M. “Iqtisodiy tahlil va audit” fanini o'qitishda G. Monj usulining tadbiqi // Biologiyaning zamонавиyo tendensiyalari: muammolar va yechimlar. – 2023. – T. 1. – №. 5. – С. 902-905